

TURKISTON JADIDCHILIGI VA ABDURAUUF FITRAT IJODIDA MILLIY UYG'ONISH KONSEPSIYASINING BADIY TALQINI

Mirsaidova Nilufar Sobirjonovna,

Oriental universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

G'aniyeva Lobar Sa'dulla qizi,

Oriental universiteti katta o'qituvchisi, PhD

Annotatsiya. Maqolada Turkiston jadidchilik harakatining milliy uyg'onish jarayonidagi o'rni hamda mazkur harakatning yetakchi namoyandasi bo'lgan Abdurauf Fitratning ijodida milliy o'zlikni anglash, ma'rifatparvarlik va taraqqiyot g'oyalari badiiy talqini tahlil qilinadi. Jadid adiblaridan biri bo'lgan Abdurauf Fitratning ijtimoiy-estetik qarashlari, milliy taraqqiyot konsepsiyasi va adabiyotga yuklangan ma'naviy vazifalari o'rganiladi. Tadqiqot natijalari jadid adabiyoti milliy uyg'onish mafkurasining shakllanishi va rivojlanishida muhim omil bo'lganligini ko'rsatadi. Mazkur maqolada Abdurauf Fitrat asarlari tarixiylik nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Tarixiylik tamoyili asosida asarda aks etgan voqealar XX asr boshlaridagi Buxoro amirligi ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan bog'liq holda tahlil qilindi. Germevntik yondashuv orqali esa Fitrat asarlarining ma'naviy-ma'rifiy mazmuni, muallif maqsadi va badiiy timsollar tizimi talqin qilindi.

Kalit so'zlar: Abdurauf Fitrat, jadid adabiyoti, milliy uyg'onish, ma'rifatparvarlik, badiiy talqin, ijtimoiy tanqid, milliy o'zlik, falsafiy qarashlar, ijtimoiy islohot, Turkiston jadidchiligi, milliy taraqqiyot, badiiy obrazlar.

Аннотация. В статье анализируется роль джадидского движения Туркестана в процессе национального пробуждения, а также художественная интерпретация идей национального самосознания, просветительства и прогресса в творчестве одного из ведущих представителей данного движения — Абдурауфа Фитрата. Изучаются социально-эстетические взгляды Фитрата, его концепция национального развития и духовно-воспитательная функция литературы. Результаты исследования показывают, что джадидская литература сыграла важную роль в формировании и развитии идеологии национального возрождения.

В данной статье произведения Абдурауфа Фитрата анализируются с точки зрения историзма. На основе принципа историзма рассматриваются события, отражённые в его произведениях, в связи с социально-политической жизнью Бухарского эмирата начала XX века.

С помощью герменевтического подхода интерпретируются духовно-просветительское содержание произведений Фитрата, авторский замысел и система художественных образов.

Ключевые слова: Абдурауф Фитрат, джадидская литература, национальное пробуждение, просветительство, художественная интерпретация, социальная критика, национальная идентичность, философские взгляды, социальные реформы, туркестанское джадидство, национальное развитие, художественные образы.

Abstract. This article analyzes the role of the Jadid movement in Turkestan in the process of national awakening, as well as the artistic interpretation of ideas of national identity, enlightenment, and progress in the works of one of its leading representatives, Abdurauf Fitrat. The socio-aesthetic views of Fitrat, his concept of national development, and the spiritual-educational functions assigned to literature are examined. The results of the study show that Jadid literature played an important role in the formation and development of the ideology of national revival.

In addition, the works of Abdurauf Fitrat are analyzed from the perspective of historicism. Based on the principle of historicity, the events reflected in his works are examined in connection with the socio-political life of the Bukhara Emirate in the early 20th century.

Through a hermeneutic approach, the spiritual and educational content of Fitrat's works, the author's intention, and the system of artistic images are interpreted.

Keywords: Abdurauf Fitrat, Jadid literature, national awakening, enlightenment, artistic interpretation, social criticism, national identity, philosophical views, social reforms, Turkestan Jadidism, national development, artistic images.

Kirish. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston hayotida yuz bergan siyosiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar milliy taraqqiyot masalasini kun tartibiga olib chiqdi. Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosati mahalliy xalqning ijtimoiy hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Bir tomondan, milliy qadriyatlar va an'anaviy ta'lim tizimi inqiroz holatiga tushib borayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, jahon taraqqiyotidan orqada qolish xavfi tobora yaqqol sezila boshladi. Ana shunday tarixiy sharoitda Turkiston ziyolilari oldida millat taqdiri, xalq kelajagi va milliy taraqqiyot yo'llarini belgilash vazifasi paydo bo'ldi.

Bu jarayon milliy uyg'onish harakatining shakllanishiga zamin yaratdi. Milliy uyg'onishning eng muhim ko'rinishlaridan biri jadidchilik harakati bo'lib, u dastlab ta'lim sohasidagi islohotlar orqali namoyon bo'ldi. Keyinchalik mazkur harakat ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotning barcha sohalarini qamrab olgan keng ma'naviy harakatga aylandi. Jadidlar millatni taraqqiy ettirishning asosiy vositasi sifatida ilm-fan, ma'rifat va madaniyatni ko'rdilar. Shu bois ularning faoliyatida maktab, matbuot, teatr va adabiyot muhim o'rin egalladi.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzuga oid ilmiy adabiyotlar orasida A. Fitrat ijodi va jadid adabiyoti masalalari keng o'rganilgan. Fitratning "Tanlangan asarlar"i uning badiiy va publitsistik merosini bevosita tahlil qilishga asos bo'lsa, B. Nazarov, X. Boltaboev, O. Sharafiddinov kabi olimlar uning ijodiy-falsafiy qarashlari, milliy uyg'onish g'oyalari va jadidchilikdagi o'rnini yoritgan.

Shuningdek, Sh. Rizaev va I. G'aniev tadqiqotlarida jadid adabiyoti rivoji hamda Fitratning fitratshunoslikdagi o'rni tahlil qilingan. "Sharq yulduzi" jurnalida chop etilgan maqolalarda esa "Hind sayyohining qissasi", "Yurt qayg'usi" kabi asarlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari va tarixiy ahamiyati yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda Abdurauf Fitrat ijodi va Turkiston jadidchilik harakatining milliy uyg'onish konsepsiyasi badiiy talqinini o'rganishda kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Asosiy metodlar sifatida tarixiylik tamoyili, germenevtik tahlil, qiyosiy-tarixiy metod hamda adabiy matnni struktur-semantik tahlil qilish usullari tanlab olindi.

Tarixiylik tamoyili orqali Fitrat asarlarida aks etgan ijtimoiy-siyosiy voqeliklar XX asr boshlaridagi Turkiston, xususan Buxoro amirligi tarixiy sharoiti bilan bog'liq holda tahlil qilindi. Germenevtik yondashuv esa muallifning g'oyaviy niyati, matnning ichki mazmuni hamda badiiy obrazlar tizimini talqin qilishga xizmat qildi.

Qiyosiy-tarixiy metod yordamida Fitrat ijodi boshqa jadid adiblari qarashlari bilan solishtirilib, umumiy va xos jihatlar aniqlandi. Struktur-semantik tahlil esa asarlarning kompozitsiyasi, obrazlar tizimi va g'oyaviy qatlamlarini ochib berishda qo'llanildi.

Tahlillar va natijalar. Jadidchilik harakati tarixida adabiyot alohida ahamiyat kasb etdi. Agar an'anaviy adabiyotda asosiy e'tibor shaxsiy kechinmalar, diniy-falsafiy qarashlar yoki ishqiy mavzularga qaratilgan bo'lsa, jadid adabiyotida millat taqdiri, ijtimoiy taraqqiyot, ma'rifat va milliy ozodlik g'oyalari markaziy o'ringa chiqdi. Adabiyot millatni uyg'otish, uning ongi va tafakkurini o'zgartirish vositasi sifatida qaraldi.

Jadid adabiyotining shakllanishi va taraqqiyotida Abdurauf Fitratning o'rni beqiyosdir. U nafaqat jadidchilik harakatining yirik namoyandalari, balki milliy uyg'onish adabiyotining asoschilaridan biri bo'lib ham hisoblanadi. Uning ijodida milliy o'zlikni anglash, xalqni ma'rifatga chorlash, jamiyatni isloh qilish va milliy taraqqiyot g'oyalari turli badiiy shakllarda ifoda etilgan.

Jadid adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan Abdurauf Fitrat ijodi milliy uyg'onish g'oyalarining turli badiiy ko'rinishlarini namoyon etadi. Ularning ijtimoiy kelib chiqishi, faoliyat sohalari va ijodiy uslublari o'zaro farq qilgan bo'lsa-da, maqsad va g'oya jihatidan mushtaraklik kuzatiladi.

Avvalo, jadid ziyolilarini birlashtiruvchi asosiy omil — millat taqdiriga daxldorlik hissidir. Ularning har biri Turkistonning mustamlaka sharoitidagi ahvolini chuqur anglab, millatni taraqqiyot yo'liga olib chiqish zarurligini ta'kidlaydi. Shu nuqtai nazardan jadid adabiyoti ijtimoiy vazifa bajaruvchi adabiyot sifatida shakllangan. Abdurauf Fitrat ijodida esa milliy uyg'onish g'oyasi kengroq falsafiy va madaniy mazmun kasb etadi. U millat taqdirini umuminsoniy taraqqiyot qonunlari bilan bog'liq holda tahlil qiladi. Fitrat asarlarida milliy mustaqillik, shaxs erkinligi, ma'naviy yangilanish va madaniy taraqqiyot masalalari bir-biri bilan uzviy bog'langan holda tasvirlanadi. Shu bois uning ijodi jadidchilikning nazariy-falsafiy asoslarini shakllantirgan muhim manba hisoblanadi.

Uning «Hind sayyohining qissasi» asari jadid nasrining eng muhim namunalariidan biri bo'lib, unda Buxoro amirligi hayotidagi ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy muammolar badiiy tahlil qilingan. Asar 1912 yilda Istanbulda nashr etilgan bo'lib, Buxoro amirligida hukm surayotgan qoloqlik, amaldorlar zulmi, sudxo'rlik, savodsizlik va iqtisodiy tanazzul muammolarini yoritishga bag'ishlangan. Muallif asar voqealarini hindistonlik musulmon sayyoh tilidan bayon qilish orqali jamiyat hayotiga tashqi kuzatuvchi nigohini olib kiradi. «Hind sayyohining qissasi» Rossiya imperiyasi ta'siri kuchaygan, Turkiya va Eronda islohotchilik harakatlari avj olgan, musulmon Sharqida milliy uyg'onish jarayonlari faollashgan bir sharoitda yaratildi. Bu davrda Buxoro amirligi tashqi jihatdan mustaqil ko'ringan bo'lsa-da, amalda Rossiyaning siyosiy ta'siri ostida edi. Ichki boshqaruv tizimi esa eski feodal munosabatlarga asoslangan bo'lib, aholining katta qismi qashshoqlik va huquqsizlik sharoitida yashardi. Fitrat ana shu muammolarni bevosita tasvirlash orqali xalqni uyg'otish va taraqqiyot g'oyalarini targ'ib qilishni maqsad qilgan. Asarning markazida Buxoro jamiyatining tanqidiy tahlili turadi. Muallif jamiyatni shartli ravishda uch qatlamga — umaro, ulamo va fuqaroga ajratadi. Umaro obrazida xalq manfaatidan uzoqlashgan amaldorlar gavdalanadi. Ular davlat boshqaruvini xalq

farovonligi uchun emas, balki shaxsiy manfaatlari uchun yurituvchi kuch sifatida tasvirlanadi. Ulamo timsolida esa diniy ilmning haqiqiy mohiyatidan uzoqlashgan, dinni manfaat vositasiga aylantirgan shaxslar tanqid qilinadi. Asarda mulla bilan sayyoh o'rtasidagi suhbatlar orqali muallif diniy aqidalarning noto'g'ri talqin qilinishi millat taraqqiyotiga to'siq bo'layotganini ko'rsatadi. Fuqaro qatlami esa jamiyatning eng jabrlangan qismi sifatida tasvirlanadi. Xususan, dehqonlarning og'ir ahvoli haqidagi epizodlar asardagi eng ta'sirchan sahifalardan hisoblanadi. Mazkur asarda o'sha davrdagi iqtisodiy muammolar keng o'rin egallaydi. Xatirchi haqidagi lavhalarda dehqonlarning sudxo'rlar qo'lida ezilishi real hayotiy faktlar asosida ko'rsatiladi. Sudxo'rlik tizimi oddiy iqtisodiy munosabat emas, balki xalqni halokatga yetaklovchi ijtimoiy illat sifatida talqin qilinadi. Safar nomli dehqon qismati orqali Fitrat iqtisodiy zulmning inson taqdiriga qanday ta'sir qilishini ochib beradi.

Bu o'rinda adib ijtimoiy voqelikni badiiylashtirish bilan cheklanmay, iqtisodiy munosabatlarning mohiyatini tahlil qilish darajasiga ko'tariladi. Mazkur asarning bosh g'oyasi shubhasiz, ma'rifatparvarlik g'oyalari yetakchi o'rin tutadi. Abdurauf Fitrat mamlakat taraqqiyotining asosiy sharti sifatida ilm-fan, ta'lim va madaniyat rivojini ko'radi. Samarqanddagi yangi usul maktablari haqidagi fikrlar, savdo maktablari tashkil etish haqidagi mulohazalar, tibbiyotni rivojlantirishga oid takliflar muallifning jadidchilik qarashlarini namoyon etadi. Muallifning fikricha, millatning orqada qolish sababi tabiiy boyliklar yoki imkoniyatlar yetishmasligida emas, balki ilmsizlik va tashabbussizlikdadir. Shu jihatdan olib qaralganda asarda ma'rifat nafaqat bilim, balki milliy taraqqiyot vositasi sifatida ham talqin qilinadi. Abdurauf Fitratning «Hind sayyohining qissasi» janr jihatidan sayohatnoma, publitsistika va badiiy nasr xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan asardir. Asar kompozitsiyasi safar marshruti asosida qurilgan. Qarshi, Shahrisabz, Samarqand va Xatirchi kabi hududlar haqidagi tasvirlar muallifga turli ijtimoiy holatlarni yoritish imkonini beradi. Dialoglar asarning asosiy badiiy vositalaridan biri hisoblanadi. Mulla, tojir, amaldor va dehqonlar bilan bo'lgan suhbatlar orqali turli ijtimoiy qarashlar to'qnashuvi yuzaga keladi. Fitrat Qur'on oyatlari va hadislardan ham mahorat bilan foydalanadi. Bu esa uning g'oyalarini xalq ongiga yaqin shaklda yetkazishga xizmat qilgan. «Hind sayyohining qissasi» Abdurauf Fitrat ijodida muhim o'rin tutuvchi, jadid adabiyotining g'oyaviy-badiiy taraqqiyotini namoyon etuvchi asardir.

Asarda Buxoro amirligi hayotining eng oxirgi yillarida, mamlakatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy muammolar keng qamrab olingan. Muallif xalq qashshoqligi, amaldorlar zulmi, ilmsizlik va iqtisodiy qoloqlik sabablarini chuqur tahlil qilib, ularning yechimi sifatida ma'rifat, ilm-fan va iqtisodiy islohotlar g'oyasini ilgari suradi.

Ma'lumki, Buxoro – butun jahonga buyuk ilm kishilari vatani, mashhur olimlar, shoirlar, tabiblarni yetkazib bergan maskan sifatida mashhur bo'lgan. Biroq Buxoro va umuman, Turkiston “ilmlarning yorqin yulduzi, insoniyat kitobining nurafshon sahifasi edi, uni nodonlik botqog'iga botirdilar”. Va u bunda Qur'onni o'z xohishicha talqin

etuvchi Buxoro ruhoniyyatini ayblaydi. Buxoro doimo ta'lim tarbiya vatani bo'lgan, vaqf tizimi uning qiyinchiliksiz faoliyat yuritishini ta'minlagan. "Bayoni sayyohi hindi" yozilgan 1913 yilga kelib, Buxoroda 200 ta oliy, o'rta va quyi bo'g'indagi madrasa bo'lgan. Fitrat mazkur asarida 3776000 tangi hisobida vaqf mablag'lari bilan ta'minlangan 72 madrasa nomini keltiradi. [Fitrat A. Hind sayyohining qissasi. "Sharq yulduzi" 1991, №8, 15-bet]. Bu o'sha zamonda ulkan mablag' edi, biroq, uning kichik qismigina tegishli joyga sarflanib, asosiysi uni taqsimlovchilar cho'ntagiga tushgan. "Olamga to'rt yuz olimni hadya qilgan Buxoroi sharif shunchalik mustahkam ilmiy kuchga ega bo'lib edi, oh, Buyuk badbaxtlik bilan iqror bo'lamanki, hozir bu madaniyat quyoshining osmoni, bu insoniyat jannati, bu fozillar dunyosining ma'mur xonadoni, bu ma'rifat jahonining darsxonasi taraqqiyoti uchun barcha vositalarga ega bo'lsa ham, jaholatning asl makoni, xorlik zanjirining asiriligicha qolmoqda. Tirikchilik uchun barcha vositali bo'lishiga qaramasdan, yoqasini ajal panjasiga topshirgan", - deb yozadi Vatan dardi bilan yongan Fitrat [Fitrat A. Hind sayyohining qissasi. "Sharq yulduzi" 1991, №8, 15-bet]

Yevropa fan va maorif sohasida ko'p narsalarni Sharqdan olgan, degan fikr A.Fitrat kitobidan qizil chiziq bo'lib o'tgan. Bizda porlab o'chgan narsalarni, uning fikricha, yevropaliklar taraqqiyot yo'lida foydalanib, yaxshi natijalarga erishishdi. Endi ishlab chiqarish, savdo, boshqarish madaniyati, fan texnikasidan va boshqa sohalarni tiklash uchun ulardan o'rganish payti keldi. Axir, Buxoroda dovrug'i dunyoga ketgan gazlama va hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqariladi, biroq ular mashina va texnika vositasida ishlab chiqarilgan xorijiy tovarlar tufayli bozordan siqib chiqariladi. Qur'on ko'rsatmalaridek, bularning hammasini Fitrat faqat o'zga dinga e'tiqod qilgani uchungina boshqa xalqlar yutuqlarini inkor etishdan yiroq.

A.Fitrat asarlari islomning falsafiy mohiyatini yangicha o'qish, uning dunyoni tushuntirish va insonning bu dunyoda tutgan o'rnini to'g'ri tushunishning yorqin namoyishi bo'ldi. U Qur'onda bitilgan o'gitlarga shunchaki rioya qilish emas, balki o'z zamini, o'z taqdirining egasi bo'lish zarurligini uqtiradi. Fitrat "Va saxxaralakum ma fissamavati val-arz-barcha yer va osmondagi narsalarga sizlarni hukm etib buyurdik" - degan oyatga asoslanib, agar tog', temir, zamin inson o'qli bilan o'zgarar ekan, nega u o'z taqdirini o'zgartira olmaydi va hukmdorlardan xayr-sadaqa kutib yashashi kerak? - degan savol qo'yadi. U muqaddas kitob oyatlarini taqdirga mutelik emas, o'z taqdirini o'zi yaratishga chaqiriq sifatida talqin etadi. Jumladan, "inson har nima topmasin, o'zining intilishidan topadi, intilmas ekansiz, hech narsaga erisha olmaysiz", -deydi muallif. [Fitrat A. Hind sayyohining qissasi. "Sharq yulduzi" 1991, №8, 32-bet] Fitrat asar davomida zamonaviy ta'lim olishga alohida ahamiyat beradi: "Parvardigor bizning salomatlik va saodat yo'limizni to'la ko'rsatib bergan. Eng avvalo deydi: "Sizlarni olamning oliy maxluqi qilib yaratdim". Shuni yaxshi bilish kerakki, biz ko'z va qoshlarimiz evaziga e'tiborli maxluqqa aylanganimiz yo'q, balki e'tiborligimiz va ustunligimiz - bilimimizning e'tibori va iqtidorimizga bog'liq. Agar biz o'zimizning bilimimiz va

iqtidorimizdan foydalanmasak, nainki e'tiborli, ustun, balki eng yomon va past maxluqlardan ham pastroq va yomonroq bo'lib chiqishimiz aniqdir". [Fitrat A. Hind sayyohining qissasi. "Sharq yulduzi" 1991, №8, 32-bet]. Qur'onga, tangri taoloning "Eru osmonda har nima bo'lsa, sizlarning buyruqlaringizni bajaruvchi etib tayinladik", degan ta'kidlarga asoslanib, insof bilan aytingchi, ana shu yeru osmondagi maxluqlardan qaysi birini o'zimizga tobe etdik? Agar Siz, Ovrupo maktablarida o'qiganingizda va ovrupoliklar telegraf, telefon, temir yo'li, havo kemalarini qaysi yo'l bilan va qanday yaratilganliklarini bilsangiz edi, Qur'onning ana shu oyatidan biz, musulmonlar qanchalik ne'matlarni oyoosti qilganlarimizni tushunib yetar edingiz"- deb yozadi muallif [Fitrat A. Hind sayyohining qissasi. ["Sharq yulduzi" 1991, №8, 32-bet] .

Fitrat Qur'on talqini asosida mamlakat rivojining yaxlit konsepsiyasini yoritib beradi. Uning fikricha, tadbirkorlik va savdoning rivoji bilimlar va millatning birligi, jipsligiga asoslanishi lozim. Katta daromad uchun bir-biri bilan raqobatlashish emas, fabrika va zavod kabi korxonalar qurish, asbob-uskunalar sotib olish uchun mablag'larni birlashtirish sanoat va qishloq xo'jaligi rivojiga qulaylik yaratadi: "Dini mubayinimiz islom har xususda ham ittifoq va birlikni amr etgan. "Buning asosiy shart sharoiti esa, uning fikricha, bolalarni tadbirkorlik va boshqa fanlarga o'rgatish lozim. Zero, Qur'onda aytilganidek, "Bilmaganlar bilganlarga tenglasha olmaydilar".

Fitrat taraqqiyotdan orqada qolmaslik, aks holda buning oqibatlari, kelgusi avlodlar oldidagi ma'suliyat haqida shunday yozadi: "Agar siz, buxoroliklar... bu xudo bergan ne'matdan foydalanmasangiz, albatta, xayyal o'tmay begonalar bu boyliklarga ega bo'lib, ularning har birining ustidan fabrika va mashinalar o'rnatadilar. Dunyo-dunyo pul ishlab oladilar. Minglab xizmatchilar bu ishga safarbar qilinadi. U vaqtda sizlarning farzandlaringiz chorasiz qolib, ularning xizmatlariga bo'yin egishlari muqarrar". [Fitrat A. Hind sayyohining qissasi. ["Sharq yulduzi" 1991, №8, 39-bet] Fitrat bu bilan, iqtisodiy qoloqlik mamlakatni Rossiyaga iqtisodiy va siyosiy tobelikka olib kelishini ko'zda tutgan edi.

A.Fitratning ikkinchi kitobi "Amir Olimxonning hukmronlik davri" deb nomlanadi. Bu asar nafaqat Buxoro aholisining maishiy va ijtimoiy ahvolini tasdiqlaydi, tavsiflaydi. Kitobning katta qismi mang'it amirlarining qisqacha tavsifiga bag'ishlangan, asosiy siyosiy voqealarga tegilmagan bo'lsa-da, muallif Buxoro inqilobi tarixini yozishni maqsad qilib quymaganligini qayd etadi. A.Fitrat amir Said Olimxon hayot tarzini bayon etib, o'zining shaxsiy bahosini bergandek bo'ladi. Agar kitob 1930 yilda, totalitar tuzum to'liq kuchga kirgan, jadidchilik esa rasmiy hokimiyat tomonidan, milliy-burjua, aksilinqilobiy harakat sifatida tavsiflanayotgan davrda yozilganini hisobga olsak, o'ylaymizki, Fitrat shu bois, shaxsiy tavsif bilan cheklanib qolgan, jadidlar haqida esa fikr yuritmagan.[Fitrat A. Amir Olimxonning hukmronlik davri. T., 1992 yyu 30-bet]

Adabiyotshunos olim B.Nazarovning fikricha: "Aslida hind sayyohi — yozuvchining o'zi. Bu yerda Fitratning asar qurilmasi borasidagi mahoratiga, fikrni bayon etish uslubiga

tan bermasdan iloj yo‘q. «Hind sayyohi» yozilgan paytda Rossiyada Stolipin islohoti avjga chiqqan, birinchi rus inqilobining «achchiq saboqlari» hukmron sinfni larzaga solgan, ana shular ta’sirida esa Rossiyaga qaram bo‘lgan Buxoroda ma’rifatparvar jadidlar harakati ancha kuchaygan edi. Shuningdek, bu davrda Turkiya va Erondagi ma’rifiy-inqilobiy harakatlar jonlangan, Afg‘onistonda mustabid amir Habibulloxon zulmiga qarshi Omonulloxon, Mahmud Tarziylar harakati yuzaga kelgan edi. Fitrat Yaqin Sharqdagi hayotbaxsh o‘zgarish va yangilanishlardan qattiq ta’sirlangani asarda yaqqol sezilib turadi. «Hind sayyohi...» qissasida Fitrat Buxoro aholisini uch toifaga: ulamo, umaro va fuqaroga ajratadi. Ana shu tabaqalanish jamiyatdagi kuchlar nisbati, kim-kimning hisobiga yashayotganligi va kim adolatsizlik qurboni bo‘layotganini o‘quvchi ko‘z o‘ngida yaqqol gavdalantiradi. «Hind sayyohi...»ni mutolaa qilar ekanmiz, Fitratning yurt taqdiri uchun qanchalik qayg‘urishi, iztirobga tushishini ravshan ko‘rib boramiz. Buxoro amirligi o‘sha paytda hozirgi Qarshi, G‘uzor, Shahrisabz, hatto Hisor tog‘larigacha bo‘lgan hududda hukmronlik qilar edi. Ana shunday keng sarhadlarda ma’rifat va sog‘liqni saqlash, ilm-fanning taraqqiyotdan ortda qolishi sababini mullalar, mufti va amirlarning keng ma’nodagi ilm-fandan uzoqligi, mansabu boylikka o‘chligi, poraxo‘rligi tufayli deb bilgan Fitrat, katta mahorat bilan bu illatlarni fosh etadi, shu yo‘l bilan ma’rifat chirog‘ini yoqib, qorong‘ulik va dahshatdan qutulish yo‘llarini qidiradi. Fitrat «Hind sayyohining qissasi»da ma’rifat haqidagi fikrlari, mulohazalarini ilgari surar ekan, Buxoro xonligida sodir bo‘layotgan adolatsizliklarni chuqur tahlil etish, dalillarni qiyoslash, umumlashtirish yo‘lidan boradi. Uning katta samimiyat va dard bilan aytgan fikrlari, hukm-xulosalari o‘quvchiga kuchli ta’sir etadi. Masalan, u hind sayyohi tilidan Buxoroda tozalik, sog‘liqni saqlash ishlari o‘lda-jo‘lda eka-ligi haqida gapirar ekan, bu shaharda tibbiyotga oid oliy maktab — Dorush-shifo ochish zarurligini ta’kidlaydi. O‘z mulohazalarini isbotlash uchun juda ko‘p dalil va raqamlarni keltiradi, ushbu yumushni amirlik xazinasidan bir tanga ham olmasdan, faqat mudarrisu boyonlar g‘orat etayotgan vaqf pullarini o‘z o‘rnida sarflash hisobidan bajarish mumkin ekanligini isbotlab beradi. Asardagi rus do‘xtiri obrazida Fitrat o‘z yurtdoshlarini Yevropa mamlakatlaridagi kabi madaniy, pokiza va o‘qimishli kishilar timsolida ko‘rishdek olijanob niyatini yorqin ifodalaydi. «Hind sayyohining qissasi» haqida gapirganda, muallif uslubiga xos muhim bir nuqtaga ham to‘xtalish zarur. Fitrat bu qissada ham, Oktyabr to‘ntarishigacha yozgan boshqa asarlari singari, o‘zining ilg‘or ma’rifatparvarlik g‘oyalarini o‘quvchi ongiga yetkazish niyatida asarning juda ko‘p joylarida Muhammad payg‘ambar hadislari, Qur‘ondan suralar va parchalar keltirib, o‘z fikriga quvvat baxsh etadi. Bunday badiiy bayon yo‘li faqatgina Fitratga taalluqli bo‘lmasdan, o‘sha davrdagi ko‘pchilik ma’rifatparvar yozuvchilarga xos edi. Masalan, Fitratning hammaslagi Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining 1914 yili yozgan «Ikki emas, to‘rt til kerak» maqolasida Turkiston xalqlarining rus tilini o‘rganishga targ‘ib etish uchun tarixiy manbalarga murojaat etib, Muhammad payg‘ambar ham o‘ziga g‘oyaviy dushman bo‘lgan yahudiylar tilini o‘rganishga amr etganligini yozadi. Bizningcha, bu holning

sabablari quyidagicha. Birinchidan, Fitrat singari ma'rifatparvarlarda islom diniga e'tiqod kuchli edi. Ikkinchidan, ilg'or yozuvchi — islom dini ta'limoti hamda muqaddas kitoblardan inson axloqini tarbiyalash, ilm-fanni o'rganish, uni hayotga tatbiq etish niyatida muvofiq hadisul iqtiboslar orkali o'zlarining ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari surgan edi. Uchinchidan, ushbu asarni ro'yobga chiqarish, o'sha davr senzurasini, amirlik mahkamalarida turgan kishilarning «qosh-qovog'i»ga moslash uchun ham shu yo'l tutilgan. «Hind sayyohi...»da Fitrat Buxoro amirligida mang'itlar sulolasidan meros qolgan qoloqlik, bid'at, xalq qonini so'ruvchi amiru amaldorlar, ajnabiy fabrikantlari mahalliy boylar, savodsiz muftilaru bir-birini g'ajishga tushgan mahalliy tojirlar, qora kunini «taqdiri ilohiy» deb bilgan omi kosibu dehqonlarni qattiq tanqid qiladi, ularni islohotga chorlaydi, millat g'ururi, boyligi, hunarmandchiligi amaliy san'atini asrashga va yuksaltirishga chaqiradi. Shu qatori, u Buxoro amirligiga qarashli yerlardan unumli foydalanish haqmda jon kuydirib, «agar shu Shahrisabz yerlari Yapon elida bo'lganida edi, zar ekib, zar undirar edilar», deb yozadi. Bu o'rinda «Hind sayyohi...»da ilgari surilgan masalalar shunchaki Movarounnahr doirasida emas, jahon miqyosida hal etilganligini ko'ramiz. Bu albatta, Fitratning keng dunyoqarashi, el uchun kuyinishi, o'z xalqi, yurti fojialarini o'ta chuqur idrok qila olganligidan dalolatdir. [Nazarov B. Fitrat ma'rifatining gultoji «Sharq yulduzi» jurnali 1991 yil, 8-son. 1-2.bet. www.ziyouz.com kutubxonasi]

Xulosa qilib aytganda A.Fitratning mazkur asari nafaqat o'z davrining ijtimoiy hujjati, balki milliy uyg'onish mafkurasining badiiy ifodasi sifatida ham katta ahamiyatga ega. Shu bois «Hind sayyohining qissasi» bugungi kunda ham o'zining ilmiy va ma'naviy qimmatini saqlab qolmoqda.

Abdurauf Fitratning «Yurt qayg'usi» sochmasida milliy aybdorlik konsepsiyasi va buyuk sohibqiron Amir Temur timsoli orqali badiiy talqin qilinganini ko'rish mumkin. Uning «Yurt qayg'usi» sochmasi jadid adabiyotida milliy o'zlikni anglash g'oyasini eng ta'sirchan ifoda etgan asarlardan biri hisoblanadi. Asarda millat taqdiri, tarixiy xotira, milliy mas'uliyat va ozodlik masalalari Amir Temur timsoli orqali badiiy talqin qilingan. Asarning diqqatga sazovor jihati shundaki, muallif yurt boshiga tushgan musibatlarining sababini faqat tashqi kuchlardan izlamaydi. Aksincha, milliy tanazzul sabablarini xalqning o'zida ham ko'radi. Shu tariqa asarda milliy aybdorlik konsepsiyasi shakllanadi. Sochmaning bosh qismida qahramon o'zini mag'lub, ojiz va iztirob chekkan inson sifatida tasvirlaydi: «Bag'rim yoniq, yuzim qora, ko'nglim siniq, bo'ynim bukuk». Bu tasvir nafaqat muallif ruhiyatini, balki butun millatning ma'naviy holatini aks ettiruvchi psixologik portret vazifasini bajaradi. Asardagi «men» obrazi individual xarakter emas, balki millat nomidan so'zlayotgan jamoaviy qahramondir.

Abdurauf Fitrat millatning fojeali ahvolini tasvirlar ekan, Turon va turklik tushunchalarini milliy o'zlikning badiiy ramzi darajasiga ko'taradi. Asarda:

«Turklik sharafi talandi» degan jumla bir millatning emas, balki butun Turkiston xalqlarining ma'naviy va siyosiy mag'lubiyatini anglatadi.

Asarning eng muhim badiiy xususiyatlaridan biri milliy aybdorlik motivining kuchliligidir. Muallif:

«Barchasini o‘zim qildim»

«Sening Turoningni o‘zim talatdim»deb ta’kidlaydi.

Bu yerda Abdurauf Fitrat mustamlakachilik siyosatini oqlamaydi. Biroq millatni mutlaq qurbon sifatida ham tasvirlamaydi. Uning fikricha, jaholat, befarqlik va faoliyatsizlik milliy halokatning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Shu jihatdan Fitratning qarashlari jadidchilikning ma’rifiy dasturi bilan uyg‘unlashadi. Asarda Amir Temur timsoli alohida ahamiyat kasb etadi. Muallif Temurni tarixiy shaxs sifatida emas, balki milliy qudrat va davlatchilik ramzi sifatida talqin etadi. Temur ruhi oldida qilingan murojaat millatning buyuk o‘tmishi bilan ayanhli bugunini qiyoslash imkonini yaratadi. Temur obrazi asarda bir necha vazifani bajaradi: Birinchi, u milliy g‘urur ramzidir. Ikkinchi, u davlatchilik an’alarining badiiy ifodasidir. Uchinchi, u millat vijdoni vazifasini bajaradi. Shu bois qahramon Temur oldida nafaqat shikoyat qiladi, balki hisob ham beradi. Bu holat asarning dramatik ta’sirini kuchaytiradi.

Fitratning: «Men qo‘lingga topshirdig‘ing qilichni tashlab, cholg‘uni olmas edim, Turonim talanmas edi» degan fikri ham katta ramziy ma’noga ega. Bu yerda «qilich» milliy iroda, jasorat va faollikni anglatadi, «cholg‘u» befarqlik va mas’uliyatsizlikning metaforasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Asarning kulminatsion nuqtasi qahramonning qasamyodi bilan yakunlanadi: «Turonni eski sharaf va ulug‘ligini qaytarmasdan burun ayog‘laringda o‘tirmasman». Bu jumla oddiy va’da emas. U milliy uyg‘onish dasturining badiiy ifodasidir. Qahramon pushaymonlikdan harakatga, iztirobdan kurashga o‘tadi. Badiiy jihatdan qaraganda, asarda romantik uslub yetakchilik qiladi. Ritorik murojaatlar, takrorlar, hayqiriqlar, savol-javob shakllari va tarixiy ramzlar asar pafosini kuchaytiradi. Shu bilan birga, publitsistik ruh ham kuchli bo‘lib, asarni milliy uyg‘onish g‘oyalarining badiiy manifesti darajasiga ko‘taradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, «Yurt qayg‘usi» turkumidagi mazkur sochma asarida Fitrat milliy tanazzul sabablarini xalqning ichki ahvoli bilan bog‘lab, milliy aybdorlik konsepsiyasini shakllantiradi. Amir Temur timsoli esa milliy qudrat, davlatchilik va tarixiy xotiraning badiiy ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Asarning asosiy g‘oyasi millatni o‘z tarixi, o‘zligi va kelajagi uchun mas’uliyatni his etishga chaqirishdan iboratdir. Shu jihatdan mazkur sochma jadid adabiyotida milliy uyg‘onish mafkurasining eng mukammal badiiy ifodalaridan biri hisoblanadi. [1. Fitrat tanlangan asarlar. 33-35] Abdurauf Fitratning «Yurt qayg‘usi» turkumidagi yana bir sochmasi jadid adabiyotining eng kuchli vatanparvarlik ruhidagi asarlaridan biri bo‘lib, unda Turon obrazi orqali millatning o‘tmishdagi buyukligi va hozirgi inqirozi o‘rtasidagi ziddiyat yorqin tasvirlanadi.

Asarda «Ey ulug‘ Turon, arslonlar o‘lkasi» degan murojaat orqali muallif Turonni faqat geografik hudud emas, balki tarixiy-ma’naviy qudrat ramzi sifatida jonlantiradi. Turon obrazi orqali u Chingizxon, Temur, O‘g‘uz, Otilla kabi tarixiy shaxslar bilan

bog'langan ulug' tamaddun merosini esga soladi. Bu orqali Fitrat millat xotirasini uyg'otish, o'tmishdagi shonli tarixni qayta anglatishni maqsad qiladi.

Sochmada ritorik savollar ("Nechuk kunlarga qolding?", "Qani u chiqdigi'ing yuksak o'rinlar?", "Nechun ketdilar?") ko'p qo'llanilgan bo'lib, bu usul asarga hissiy zo'riqish va dramatik kuch bag'ishlaydi. Bu savollar javob talab qilishdan ko'ra, o'quvchini uyg'otish, uni fikrlashga majbur qilish vazifasini bajaradi.

Muallif Turonning o'tmishdagi kuch-qudratini "er yuzini titratgan", "tog' gavdali o'g'lonlar", "yo'lbars yuraklar" kabi metaforalar orqali tasvirlaydi. Bu obrazlar xalqning ruhiy qudrati, jasorati va birlik timsoli sifatida xizmat qiladi. Asardagi eng muhim g'oyalardan biri — turkiy dunyoning inqiroz sabablarini tashqi kuchlardan emas, balki turkiy dunyoning inqiroziga bosh sabab tarqoqlik va birlikning yo'qolishidan izlashdir. "Yolg'iz... tarqalmishdir" degan xulosa orqali muallif millat kuchining yo'qolmaganini, balki tarqoq holatga tushganini ta'kidlaydi. Bu jadidchilik mafkurasiga xos bo'lib, u uyg'onish, birlashish va ma'rifat orqali yurtni qayta tiklash g'oyasini ilgari suradi.

Shu jihatdan asar faqat tarixiy esdalik emas, balki siyosiy-ijtimoiy chaqiriq sifatida ham ahamiyatlidir. U o'quvchini o'tmish bilan faxrlanishga emas, balki hozirgi holat uchun mas'uliyat his etishga undaydi. [Abdurauf Fitrat Tanlangan asarlar. 33-bet 2000]

Abdurauf Fitratning "Temur sag'anasi", "O'g'uzxon", "Qon", "Begijon", "Abo Muslim" kabi dramatik asarlari (1914-1919), ularning matnlari alohida saqlanmagani uchun, bu kunga qadar yetib kelmagan. Bizgacha to'la saqlangan dramalarining dastlabkisi "Chin sevish" (1920) asaridir. Bu asarga mavzu va syujet jihatidan uyg'un bo'lgan drama "Hind ixtilolchilari" (inqilobchilari) asaridir. Garchand Abdulhamid Cho'lpon "Hind ixtilolchilari" "Chin sevish" pesasining davomidur ("Inqilob" 1922, 3-son) deb yozgan bo'lsa-da, bu asar alohida mustaqil drama sifatida e'tiborga loyiq.

Abdurauf Fitratning "Abulfayzxon" deb nomlangan fojeaviy ruhdagi asari 1924 yilda yozib tugallangan bo'lib, ayni shu yili Moskvada Markaziy Sharq nashriyoti tomonidan arab yozuvida chop etilgan. "Abulfayzxon" fojeasi filologiya fanlari nomzodi Safo Zufarov tomonidan nashrga tayyorlangan va 1989 yili qayta chop qilingan. ["Sharq yulduzi" 1989, 1-son. 83-104 betlar]

Asar Ashtarxoniylar sulolasining Buxoro taxtidan ketishi va yangi sulola – mang'it amirlarining hokimiyat tepasiga kelishi kabi tariximizda burilish yasagan voqealarga bag'ishlangan. Abdurauf Fitratning bu mashhur fojeaviy asari haqida quyidagi taqriz va tadqiqotlar e'lon qilingan. [N.G'anizoda Abulfayzxon. "Qizil O'zbekiston" 1926 yil 14 dekabr], A. Aliev. Fitrat va uning "Abulfayzxon" asari. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" 1988; E.Karimov. "Abulfayzxon" tarixiy dramasi haqida. "Sharq yulduzi" 1989, 1-son 81-82 betlar; Jamol Kamol. "Abulfayzxon" – to'ng'ich tarixiy drama. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" 1989, 14 aprel; I.G'aniev "Masterstvo Abduraufa Fitrata i sozdaniy tragedii "Abulfayzxon", AKD, Toshkent, 1992. [Fitrat A. Tanlangan asarlar 2000. 252-253 betlar]

Abulfayzxon – Buxoroda humronlik qilgan Ashtarxoniylar sulolasining so'nggi

vakili. 1747 yili vaziri Rahimbiy otaliqning fitnasi bilan butun oila a'zolari bilan yo'q qilib yuborilgan. Shundan so'ng Buxoro taxtiga yangi sulola – Mang'it amirlari kelgan. Shu vaqtdan e'tiboran Buxoro xonligi “Buxoro amirligi” deb yuritila boshlangan.

Jadidchilik harakati Turkiston xalqlarining milliy o'zligini anglash va milliy taraqqiyotga intilish jarayonida muhim o'rin tutgan ijtimoiy-madaniy hodisadir. Bu harakatning adabiy ifodasi sifatida shakllangan jadid adabiyoti o'zbek milliy adabiyoti tarixida yangi bosqichni boshlab berdi.

Abdurauf Fitrat ijodi milliy uyg'onish mafkurasining turli qirralarini aks ettirgan. Uning asarlarida milliy ozodlik va madaniy yangilanish konsepsiyasi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Jadidlarning ijodiy merosi milliy adabiyot taraqqiyoti, milliy g'oya shakllanishi va jamiyat ma'naviy hayoti rivojida muhim ahamiyatga ega bo'lib, bugungi kunda ham o'z ilmiy va amaliy qimmatini saqlab qolmoqda. Jadid adiblari tomonidan ilgari surilgan ma'rifat, milliy taraqqiyot va inson kamoloti g'oyalari zamonaviy jamiyat uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Fitrat Abdurauf. Tanlangan asarlar. Toshkent. 2000
2. Nazarov B. Fitrat ma'rifatining gultoji «Sharq yulduzi» jurnali 1991 yil, 8-son. 1
3. Rizaev Sh. Jadid damasi. Toshkent. 1997
4. Turdiev Sh. “Xind ixtilochilari” fojeasi haqida. Sharq yulduzi. 1990. 4-son.
5. Boltaboev X. Abdurauf Fitrat Toshkent. 1992.
6. Boltaboev X. “Yurt qayg'usi” Sharq yulduzi. 1992.
7. Sharafiddinov O. Abdurauf Fitrat. “Yoshlik” 1990.5-son
8. G'aniev I. Fitrat va fitratshunoslik. Toshkent 2005.